



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'YOYALAR



## YANGI YIL BAZMI

**Ibodullayeva Zubayda Sherzodovna**

*"The most Reliable Publication" MCHJ direktori*

**Rahmonov Oybek Rahim o'g'li**

*"The most Reliable Publication" MCHJ ijrochi direktori*

YANGI YIL munosabati bilan Urganch shahar 23-sون Davlat maktabgacha ta'lif tashkilotida "YANGI YIL BAZMI" nomi ostida katta bayram tashkillashtirildi. Bayram asoschilari: **Atadjanova Shaxnoza Qosimboyevna, Omonboyeva Madinabonu.**

Maktabgacha ta'lif tashkilotlarida "Yangi yil" bayramini o'tkazishning maqsadi bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga, shuningdek, ularning estetik tarbiyasiga hissa qo'shishdir. Quyidagi maqsadlar to'liq bayon etiladi:

1. Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Bayram tadbirdi orqali bolalarda ijodkorlik va badiiy ko'nikmalarini shakllantirish. Qo'shiqlar, raqslar va sahna ko'rinishlari bolalarning o'zini ifoda qilishiga imkon beradi.

2. Bayram kayfiyatini yaratish va ijobiy hissiyotlar ulashish

Yangi yil tadbirdi orqali bolalarda quvonch, shodlik va ijobiy hissiyotlar uyg'otiladi. Bu esa ularning psixologik holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Jamoaviylik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish

Tadbirda ishtirok etish orqali bolalar bir-biri bilan hamkorlik qilish, o'zaro hurmat va yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Maktabgacha ta'lifda qadriyatlarni singdirish

Milliy va umumbashariy bayramlar, urf-odatlar bilan tanishtirish orqali bolalarda an'anaviy qadriyatlarni shakllantirish.

5. Estetik did va madaniyatni oshirish

Bayramona muhit, bezaklar, Yangi yil kiyimlari orqali bolalarning estetik hislarini rivojlantirish.

6. Rag'batlantirish va o'ziga ishonchni oshirish

Tadbirda faol qatnashgan bolalarni rag'batlantirish orqali ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish. Bu bolalarni kelgusida boshqa tadbirda faol bo'lishga undaydi.

7. Ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlikni kuchaytirish

Bayram tadbirdi ota-onalarni ta'lif jarayoniga jalb qiladi va pedagoglar bilan yaqin hamkorlikni rivojlantiradi.

Yuqoridagi maqsadlar "Yangi yil" bayramini faqat o'yin-kulgu sifatida emas, balki tarbiyaviy va rivojlantiruvchi tadbir sifatida tashkil etishga xizmat qiladi, deydi, **Atadjanova Shaxnoza Qosimboyevna.**

Bayram tadbirda barcha bolalar faol ishtirok etishdi. Tarbiyalanuvchilar o'z ro'llarini mohirono ijro etishdi. Tadbirdan lavhalar:





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar

